

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“TRANSPORT VA LOGISTIKA” fakulteti
“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

DIPLOM LOYIHASI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: “Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash”

Bitiruvchi: 5310600 - “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatasiyasi” yo`nalishi 4-kurs 167-15-guruh talabasi:

	_____ N. Komilova.
Kafedra mudiri:	_____ N.Ikromov
Diplom loyihasi rahbari:	_____ A.Sarimsaqov
Maslahatchilar:	_____ M.Gafforov
	_____ X.Tursunov
	_____ N.Xalilov

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“TRANSPORT VA LOGISTIKA” fakulteti
“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası
DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA
T O P S H I R I Q

Komilova N

1. **Diplom loyihasining mavzusi:** “Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash” Institut bo`yicha 2018 yil 7 dekabrda 314- sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. **Diplom loyihasini bajarish uchun ma`lumotlar**

O`zR Prezidenti qarorlari. Ilmiy- texnik adabiyotlar. “O`zavtotrans” vazirligining meyoriy xujjatlari. Hayot faoliyati xavfsizligi va atrof- muxit muxofazasi me`yorlari. Texnik iqtisodiy ko`rsatkichlar.

3. **Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:**

1) **Kirish** Mavzu bo`yicha “O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi, atrof- muxit muxofazasi meyorlari Bundan tashqari Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash yoritiladi.

2) **Asosiy qism.** Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash bo`yicha bajarilgan diplom loyihasi mavzusining tahlili va adabiyotlar sharhi beriladi. Mavzuning asosiy mazmuni yoritiladi va zarur ma`lumotlar keltiriladi.

3) **Texnologik qism** Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash

4) **Hayot faoliyati xavfsizligi qismi.** Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalashga texnik talablar, kabi ma`lumotlar keltiriladi.

5) **Iqtisodiy qism.** Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalashni iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

6) **Xulosa va takliflar** Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash bo`yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi

7) **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:** Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

8) **Ilova.** Mavzu bo`yicha maxsus jadvallar, rasmlar ma`lumotlar ilova qilinadi.

4. **Diplom loyihasining chizmalariro`yhati** (A3formatda 6 list vatman):

a) Bosh reja

b) Bosh bino

v) Avtoshohbekat yo`nalishlari rie`ystri

v) Xavfsizlikni ta`minlashni vidio nazorati

d) Nozimxona

k) Iqtisodiy ko`rsatkichlar.

5. Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasi-ning qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	07.12.2018 y	03.01.2019y		Sarimsaqov.AM
2	Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshox-beketni loyihalash asoslari	01.03.2019 y	01.04.2019y		Sarimsaqov.AM Gafforov MT
3	Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish	01.04.2019 y	03.05.2019 y		Sarimsaqov.AM
4	Hayotfaoliyati xavfsizligi qismi	10.05.2019 y	20.05.2019y		Tursunov. X
5	Iqtisodiy qismi	20.05.2019 y	25.05.2019y		Xalilov N
6	Xulosa va takliflar	25.05.2019y	30.05.2019y		Sarimsaqov.AM
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	30.05.2019y	01.06.2019y.		Sarimsaqov.AM
8	Ilova				Sarimsaqov.AM

6. Topshiriq berilgan sana: 7.12.2018 yil

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: 01.06.2019 yil

Diplom loyihasi rahbari:

dotsent.A.Sarimsaqov. _____

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi:

Komilova .N_____

Kafedra mudiri:

t.f.n N.A. Ikromov_____

\MUNDARIJA

I. KIRISH	5
II.ASOSIY QISM.....	10
II.1.ADABIYOTLAR SHARXI.....	10
II.2. XALQARO YO'LOVCHI TASHISH YO'NALISHLARINI YO'LDA OCHISH (YOPISH) TARTIBI BO'YICHA YO`RIQNOMA ASOSLARI	13
III.TEXNOLOGIK QISM.....	20
III.1 AVTOSHOXBEKATDAN XALQARO YO`NALISHLARNI RI`YSTRINI TUZISH.....	20
III.2 XALQARO YNALISHDAGI AVTOSHOHBEKATNI TEXNOLOGIK HISOBLASH.....	25
III.3. ANDIJON SHAHRIDA XALQARO YO`NALISHDAGI AVTOSHOXBEKATNI LOYIHALASHNI TASHKIL QILISH.....	29
III.4.AVTOSHOXBEKATDAN AVTOBUSLARNI JO`NATISHDA NAZORATCHI MUTAXASSNI YO`RIQNOMASINI ISHLAB CHIQISH	34
IV. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	44
V. IQTISODIY QISM.....	48
VI.XULOSA VA TAKLIFLAR.....	55
VII.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	57
VIII.ILOVALAR.....	59

1. KIRISH

Andijon shahrida xalqaro yo`nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish masalasi yo`lovchilar ko`payib borayotgan hozirgi va ertangi kun uchun ham ahamiyatlidir. Avtoshoxbekatdan qatnovga chiqayotgan har bir avtobusda yuklar joylashishi to`g`liligini tekshirish, yuk turlarini har tomonlama tekshirish, narkotik moddalar olib ketishga yo`l qo`ymaslik masalasi ayni hozirgi tahlikali davrda muhimdir.

2018 yilga «Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo`llab-quvvatlash yili» Davlat dasturi doirasida 21 trillion so`m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirildi. [1-3]

Sanoat, qishloq xo`jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko`rsatish sohaslarida salmoqli yutuqlar qo`lga kiritildi.

Aholi farovonligini oshirish maqsadida joriy yilda ish xaqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o`tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi.

Xususan, pedagog xodimlarning ish xaqi so`nggi 10 yilda birinchi marta 50 foizgacha ko`paytirildi.

Ko`rilgan chora-tadbirlar tufayli, axolining real umumiy daromadlari 2017 yilga nisbatan 12 foizga oshdi.

«Xar bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz» kabi dasturlar doirasida 2 trillion so`mga yaqin mablaq ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyiqalari amalga oshirildi.

2019 yildan boshlab, soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan xududlarda 5,5 trillion so`m qo`shimcha mablaq qoldirildi.

Bu, o`tgan yilga nisbatan 6 barobar, 2016 yilga nisbatan esa –32 barobar ko`pdir.

«Obod qishloq» va «Obod maqalla» dasturlariga 3 trillion so`m mablaq yo`naltirildi. Natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo`ldi.

2018 yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiqa bo`yicha kelishuvlarga erishildi.

Jaon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan qamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda, chet el investitsiyalari qisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiqa amalga oshirilmoqda.

2018 yilda boshlagan ishlarimizni mantiqiy davom sifatida yangi – 2019 yilga «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» deb nomlandi.

Iqtisodiyot soqasida quyidagi maqsadlar:

- ochiq iqtisodiyot, soqlom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muqitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o`rinlarini ko`paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, meqnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o`shishni ta'minlash;
- «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning qajmini keskin qisqartirish;
- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro`yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

Birinchiidan, biz makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori iqtisodiy o`shish sur'atlarini ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash.

Jaon tajribasi asoslanib, monetar siyosatni takomillashtirish va narx-navo barqarorligini ta'minlash kontseptsiyasini ishlab chiqish.

2019 yil uchun Davlat byudjeti defitsiti 4,5 trillion so`m va bu yalpi ichki maqsulotga nisbatan 1,1 foiz bo`lishi rejalashtirildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilash. «Raqamli O'zbekiston-2030» dasturini hayotga tatbiq etish.

Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki maqsulotni kamida 30 foizga o'zlashtirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo'lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish.

2019 yilda barcha manbalar qisobidan qariyb 138 trillion so'mlik yoki 2018 yilga nisbatan 16 foiz ko'p investitsiyalarni o'zlashtirish.

Bu borada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga etkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxonalar ishga tushiriladi.

2019 yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga etkaziladi.

Biz erkin bozor tamoyillarini o'rnatmoqchi ekanmiz, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog'lom raqobat muhitini yaratishimiz shart.

Shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Shu bois, "Uzbekistan Eyrveys" va "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarur.

Bugun mamlakatimizda yo'lovchi tashish transportining deyarli barcha turi ishlab chiqarilmoqda. Yo'lovchilar xavfsizligi qator huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Natijada bugungi kunda O'zbekistonda yo'lovchi tashish avtomobil transportlarining yo'nalishlari 4,3 mingdan oshdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-apreldagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslar yo'lovchilar tashish tizimini yanada tokomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori bilan 2017-2021- yillarda avtovakzallar va avtoshohbekatlarni qurish va qayta tiklash parametrlari tasdiqlandi. Unga ko'ra, 2021- yilgacha mamlakatimizda

37 Avtoshoh(bosh)bekat va avtoshohbekat quriladi, shunchasi qayta tiklanadi. Avtoshohbekatlarni modernizatsiya qilishning umumiy qiymati 23,429 mlrd so'mga baholanmoqda, bu holda 9,915 mlrd so'm mahalliy byudjetlar hisobidan va 8,359 mlrd so'm bank kreditlari evaziga qoplanadi.

2022 yilgacha O'zbekiston bo'ylab 73 ta avtoshohbekat va bitta Avtoshoh(bosh)bekat quriladi va qayta tiklanadi. Qarorga ko'ra, O'zbekistonda jahonning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda xalqaro yo'nalishdagi mikroavtobuslarni ishlab chiqarishni tashkillashtirish takliflarini tezlashtirish masalasi nazarda tutilgan.

Qoraqalpog'istonda – 3 ta avtoshohbekat qayta tiklanadi; Andijon viloyatida – 4 tasi qayta tiklanib, bitta yangisi quriladi “Shu bizning loyiha bo'ladi”;
Buxoro viloyatida – 7 avtoshohbekat qayta tiklanadi.

Aholiga qulaylik bo'lishi uchun mavjud shahar ichi yo'lovchi tashish yo'nalishlari Avtoshohbekat bilan bog'langan. Avtoshohbekatlar, yo'nalishlarning oxirgi bekatlarini qurish uchun yer maydoni ajratilayotganda ularning yo'lovchilarga qulay joylarda, xususan, odam gavjum bo'ladigan temir yo'l vokzallari, bozorlar, aeroportlarga yaqin bo'lishini hisobga olish belgilangan.

Prezidentimiz qarori bilan xalqaro yo'nalishda yo'lovchi va yuklarni tashishni yanada rivojlantirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Xaritaning asosiy vazifalaridan biri qo'shni davlatlar bilan uzilib qolgan qardoshlik rishtalarini bog'lashdir.

Avtomobillarda yo'lovchilar tashish mamlakat umumtransport tizimining ajralmas bir qismi bo'lib, yo'lovchilar transportining boshqa turlari bilan bir qatorda yo'lovchilar tashish ishlari bilan shug'ullanadi.

Transport turlaridan qat'iy nazar yo'lovchilar tashishni tashkil etishda ularga umumiy talablar qo'yilgan bo'lib, unda yo'lovchilarni qisqa vaqt ichida manzillarga yetkazib qo'yish, transport vositalarining butun yo'nalish davomida aniq harakati, transport vositalaridan yaxshi foydalanish, tashishni to'la xavfsizlik bilan tashkil etish, yo'lovchilarga yuqori madaniyat bilan xizmat ko'rsatish, iloji boricha xarajatlarni kamaytirish talablari qo'yiladi.

Avtoshoh(bosh)bekatlar amalda yirik shahar va sanoat markazlarida shahar transporti harakatidan alohida qurilgan inshootlar majmuidan iborat bo'lib, unga quyidagilar kiradi: yo'lovchi va xizmatchi xodimlarga mo'ljallangan vokzal binolari; yo'lovchilarning avtobusga chiqish va undan tushish joylari (perronlar), reysga chiqishni kutib turuvchi avtobuslar uchun maydoncha; avtobusni tozalash, yuvish va texnik xizmat ko'rsatish joylari.

Andijon shahrida qo'shni Qirg'izston Respublikasi bilan Andijon- Osh yo'nalishlarini ochish masalasi muhim bo'lib bormoqda. Bu muammolarni bartaraf qilishda yuqoridagi ma'lumotlar xuquqiy xujjat hisoblanadi. Shunday qilib yuqoridagi mamlakat miqyosidagi ustivor Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish bilan xalqaro yo'nalishdagi yo'lovchilarga sharoit yaratish hisoblanadi.

Diplom loyiha ishini ob'yekti-bu Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish hisoblanadi.

Diplom loyiha ishini predmeti – bu Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish hisoblanadi.

Diplom loyiha ishini maqsadi-bu Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalashni tashkil qilish hisoblanadi.

Diplom loyiha ishini ilmiy yangiligi- bu Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish bo'yicha uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqishdir.

Diplom loyiha ishining amaliy ahamiyati shundaki, Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalashni tashkil qilinadi.

Diplom loyiha ishini bajarish uchun quyidagi rejalar belgilandi. Kirish va unda mavzuning dolzarbligi, Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash asoslari, unda adabiyotlar sharxi. Andijon shahrida xalqaro yo'nalishdagi avtoshoxbekatni loyihalash tashkil qilish, hayot faoliyati xavfsizligi, iqtisodiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

II.ASOSIY QISM

II.1.ADABIYOTLAR SHARXI

Mirziyoyev Sh.M. “O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan mavzuni tanlash va dolizarbligini asoslashda foydalandim.

Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha harakatlar strategiyasi O`zbekistonda, iqtisodiyot, fan va texnika, ijtimoiy - siyosiy innovatsiyalar sifatida boshlandi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ijtimoiy zaruratga aylandi. Bu qonun xujjatlardan mamlakatni rivojlantirish strategiyasini aniqlash, mavzuni tanlash va dolizarbligini asoslashda foydalandim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi 482-sonli «Yo'lovchi va transport vositalarini tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» gi qaroridan mavzuni tanlash va dolizarbligini asoslashda foydalandim.

Jamiyatimizning rivojlanish jadalligini ta'minlashda yuqori malakali kadrlar alohida o`ringa ega. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-1875-sonli qarori yangi islohot deb tushundim.

Xo`jaev.B.A.ning “Avtomobillarda yuk va pasajir tashish asoslari ekspluatatsion xususiyatlarini o`rganishda foydalandim.

Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. O`zRO va O`MTV avtotransport oliy o`quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan. Prof. Sidiqnazarov Q.M. umumiy taxriri ostida ekspluatatsion jarayonlarni loyihalashda foydalandim.

Xamraev. O , Magdiev. Sh, Qodirov. T “Avtomobillar servisi asoslari” sevis ishlarini tashkil qilishda foydalandim.

Musajonov M.Z. “Avtotransport tarmog`i korxonalarini loyihalash” loyihalashda foydalandim.

O'zbekiston avtomobil' transporti vazirligi va O'zbekiston Respublikasi avtomobil', daryo, elektr transporti va yo'l xo'jaligi xodimlari kasaba uyushmasining Markaziy Kengashi Prezidumining 2007 yil 22 oktyabirdagi 5/11-08 son qarori.

Usmonov. J "O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakatdagi tarkibga texnik xizmat ko'rsatish to'g'risida NIZOM" texnologik hisoblarni bajarishda foydalandim

Maxmudov G.N "Avtomobillarning elektr va elektron jihozlari" (darslik) avtomobillarni elektr qismlariga xizmat ko'rsatishda foydalandim.

E.Asatov, A. Tojiboev" Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari" avtomobillarga diagnostik xizmat ko'rsatishda foydalandim

Barovskiy Yu.I, Buralov. Yu.V., Morozov. K..A., Avtomobilning tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni tashkil etishda foydalandim.

Bitiruv loyiha ishimni yoritishda bundan tashqari xorij adabiyotlaridan foydalandim. AQSHdagi horijiy olimlardan:

Jean-Paul Rodrigue «The Geography of Transport Systems»; Lester A. Hoel.Nicholas J. Garber. Adel W. Sadeklarning Transportation infrastructure Enjineering A Multimodal Integration;

Kimball, Cheryl. Startur. Start your own Transportation service Taxi. Limousine. Rideshare Trucking. Specialty. Medical Description;

Беляев В.М.ning "Организация автомобильных перевозок и безопасность движения". adabiyotlaridan foydalandim.

Mazkur avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish bo'yicha ishlash jarayoni hamda muayyan ekspluatatsion sharoitda samarali ishlash imkoniyatini aniqlash va uning konstruktsiyasini shu sharoitda qay darajada moslashish imkoniga ega bo'ldim.

Transport vositalariga alohida talablar qo'yilgan. Ularning eng asosiysi ekologik jihatdan tozaligidir. SHuning uchun ekologik jihatdan eng kam zararli turlarini o'rganishga xarakat qildim.

Ushbu adabiyotlarda avtomobillarning tashish jarayonlarining ekspluatatsion xususiyatlari, keng yoritilgan. Chunki, Evropa va AQSH hamda Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida tayyorlanayotgan soha adabiyotlarida oson va sodda qilib kitobxon uchun ma'lumotlar beriladi.

Bizning mamlakatimizdagi darslik va adabiyotlarda mutaxassislikni xorij tajribalari keng qo'llanilganligini kuzatdim. Diplom loyiha ishimda tayyorlashda xorij va zamonaviy ekspluatatsion loyihalarni ishlashda keng foydalanish bilan bajarayotgan ishimni sifatini oshirishga erishdim.

II.2. XALQARO YO'LOVCHI TASHISH YO'NALISHLARINI YO'LDA OCHISH (YOPISSH) TARTIBI BO'YICHA YO`RIQNOMA ASOSLARI

§ 1. Umumiy qoidalar

1. Shaharlarda, shaharlararo, shaharlararo va xalqaro yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini (bundan buyon matnda - qoida) ochish (yopish) tartibi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi 482-sonli «Yo'lovchi va transport vositalarini tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida avtoulavlarni tashish uchun avtoulavlarni mo'ljallangan yuklarni tashish va xavfsizlik talablari. "[4]

2. Mazkur Qoida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbekiston avtomobil transporti vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi shahar, shahar atrofi, shaharlararo yo'lovchi tashish transporti yo'nalishlari va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan boshqa davlat organlari uchun majburiydir.

3. O'zbekiston avtomobil transporti vazirligi (uning hududiy boshqarmalari) avtomobil va daryo transportini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida davlat avtotransporti faoliyatini muvofiqlashtiradi.

§ 2. Atamalar

4. Ushbu Nizomda "Yo'l harakati transporti to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrdagi 482-sonli "Yo'lda yo'lovchilarni tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori va O'zbekiston Respublikasida avtobus xizmatlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar qo'llanilgan."

§ 3. Yo'lovchi tashishlarni tashkil qilish

5. Yo'lovchi tashish quyidagi turlarga bo'linadi:

a) shaharlararo transport vositasi shahar chegaralari doirasida amalga oshiriladi. Tashishlarga ochiq savdolar o'tkazilgunga qadar yo'lovchilar tashishni tashkil etish

bo'yicha shahar komissiyalari tomonidan, shuningdek tanlov savdolari natijalari bo'yicha tender komissiyalari qarorlari bo'yicha tenderlar o'tkaziladi;

b) shahar atrofini 50 kilometrgacha uzaytiradigan yo`nalishlar bo'ylab olib boriladigan shahar tashqarisidagi qatnovlar (ularning bir qismi shahar chegaralari ichida joylashgan bo'lishi mumkin), ular tashishlarni ochiq tenderlarni o'tkazishdan oldin yo'lovchilar tashishni tashkil qilish bo'yicha viloyat komissiyalari tomonidan ularga topshiriladi, tender savdolari natijalari bo'yicha tender komissiyalarining qarorlari chiqariladi;

v) shaharlararo-viloyatlararo - bir mintaqa hududida 50 kilometrdan ortiq masofaga shahar tashqarisida tashish. Tender qatnashchilari ochiq tenderlar o'tkazilgunga qadar yo'lovchilar tashishni tashkil etish bo'yicha mintaqaviy komissiyalar tomonidan, tender savdolari o'tkazadilar;

g) shaharlararo-mintaqalararo - yo`nalishning uzunligiga qaramasdan O'zbekiston Respublikasi ikki yoki undan ortiq hududida olib boriladi. Tender egalari ochiq tenderlar shaharlararo-mintaqalararo va xalqaro yo'nalishlarni joylashtirish uchun ochiq tenderlar tashkil etish va o'tkazish bo'yicha idoralararo komissiya tomonidan, shuningdek tender savdolari natijalari bo'yicha - tender natijalariga muvofiq qaror qabul qilishlari uchun tayinlanadi;

e) xalqaro - yo`nalishning uzunligidan qat'i nazar, davlat chegarasidan tashqarida yoki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqarida amalga oshiriladigan tashish, ochiq tenderlar xalqaro, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tenderlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha idoralararo komissiya tomonidan belgilanadi;

6. Yangi yo`nalishni ochish tashabbusi:

tashuvchilar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, yo'lovchilar tashish transportini tashkillashtirish bo'yicha yo'lovchilarni tashish bo'yicha maxsus vakolatli organlar va komissiyalar;

O'zbekiston avtomobil transporti vazirligi va uning hududiy filiallari; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilikning boshqa a'zolari;

xorijiy davlatlarning vakolatli organlari.

7. Yo'l harakati xavfsizligi va harakat xavfsizligini ta'minlaydigan shart-sharoitlar mavjud bo'lganda yangi yo'nalishlar ochiladi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun yo'lovchilarning yo'nalishlarini ochishda yo'llarning temir yo'l kesishmalaridan, iloji boricha o'tmasligi kerak. Buning imkoni bo'lmagan hollarda, to'siqlar bilan va to'siqsiz mavjud temir yo'l uchastkalari orqali qatnov avtobuslarini (doimiy yoki vaqtincha) harakatlanishni ochish mumkin. Shu bilan birga, to'siqsiz o'tish joylarida avtobuslarni faqat avtomatik signalizatsiya qilish tizimi bilan jihozlanganidan so'nggina kiritish mumkin.

8. Yo'nalishlarni avtomatlashtirilgan signalizatsiya tizimida jihozlanmagan to'siqsiz foydalanish taqiqlanadi.

9. Muntazam yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini ochish uchun tayyorgarlik ishlari quyidagi tuzilgan komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi:

Shahar hokimligi mas'ul xodimi boshchiligidagi shahar hokimiyati, shu jumladan, yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi hududiy bo'linmalari, O'zbekiston avtomobil transporti vazirligi hududiy boshqarmasi, yo'l, kommunal xizmatlar, temir yo'llar, tashuvchilar va temir yo'llarni boshqaruvchi boshqa tuzilmalar vakillari - shahar yo'nalishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi ushbu idoralarning mas'ul xodimi va yo'l harakati xavfsizligi hududiy boshqarmasi boshliqlari, O'zbekiston avtomobil transporti vazirligi hududiy boshqarmasi, yo'l va kommunal tashkilotlar, temir yo'llar, tashuvchilar va boshqa tuzilmalar rahbarlari boshchiligida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi temir yo'llar mavjud - shaharlararo va shaharlararo-viloyatlararo yo'nalishlarni ochishda;

O'zbekiston avtomobil transporti vazirligining mas'ul xodimi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, "O'zavtoyol" DAK, temir yo'llar, tashuvchilar va temir yo'llarni boshqaruvchi boshqa tuzilmalar vakillari - shaharlararo - mintaqalararo yo'nalishlarni ochilishida tekshirib imzo chekadilar;

O'zbekiston Respublikasi avtomobil vazirligi va uning vakolatli hududidagi boshlig'ini, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, O'zavtoyol Temir yo'llari "va temir yo'llarni boshqaruvchi boshqa tuzilmalar, shuningdek, vakolatli vakillarning o'xshashlari davlat hokimiyati to'g'risida - xalqaro yo'nalishlar ochilishida, komissiya a'zolari yo'llarning yo'l harakati xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash uchun o'z vakolatlari doirasida shaxsan javobgardirlar.

10. Komissiyalar:

yo`nalish bo'ylab yo'lovchilar tashish ehtiyojini aniqlaydi (qat'iy belgilangan yo'lovchilar tashish);

yo`nalishni tanlash va yo'l sharoitlarini o'rganish, yo'l harakati xavfsizligi talablari va boshqa shartlar bilan qonun hujjatlarida belgilangan yo`nalishga muvofiqligini aniqlash;

yo`nalishni ochishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqaradilar.

11. Yo`nalishni o'rganish quyidagi bosqichlaridagi ishlardan iborat:

a) yo`nalishlarni yo'l harakati xavfsizligi talablariga muvofiqligi, ular quyidagilar asosida baholanadi:

transport tashkilotlari yoki yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanadigan boshqa tashkilot tomonidan taqdim etilgan yo`nalish haqida ma'lumot;

yo`nalishda yo'llarning holati (yo'llarning qatnov qismlari va yo'llari holati, yo'lning rejasi va profil elementlari, transportning intensivligi va tarkibi, sun'iy inshootlarning holati, temir yo'l kesishmalari, parom va muzlik o'tish joylari, yo'l harakati boshqaruv vositalarining mavjudligi va boshqalar) yo'llar, sun'iy inshootlar, temir yo'l vokzallari va boshqalar uchun mas'ul bo'lgan shahar va boshqa tashkilotlar;

Yo'l-transport hodisalari konsentratsiyalash joylari, ularning sabablari to'g'risida davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotnomasi;

yo`nalishda ishlaydigan haydovchilarga so'rov;

Tegishli tashkilotlar rahbarlari ushbu ma'lumotlarni komissiyalarga o'z vaqtida taqdim etishlari shart;

b) oraliq va yakunlovchi to'xtash joylari va ular orasidagi masofani belgilash, avtobuslarni almashtirish va to'xtash uchun platformalar joylarini va o'lchamlarini aniqlash;

v) zaruriy chora-tadbirlar ro'yxatini ko'rsatib, transport vositasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, transport xavfsizligini bartaraf etish bo'yicha tekshiruv natijalari to'g'risida hujjat tayyorlash;

d) Yo'l harakati xavfsizligi talablari va avtobus yo`nalishlarida joylashgan ko'priklar, yo'llar va boshqa sun'iy tuzilmalarning boshqa me'yoriy hujjatlariga rioya etishga e'tibor berish;

e) tezlikni normallashtirish va yo`nalishni masofadan o'lchashni amalga oshiradigan sinov reyslarini tashkil etish va o'tkazish. Sinovlarni tekshirish natijalariga ko'ra, yo`nalishning belgilangan uzunligi va xarakat uchun belgilangan standartlar, qaytib keluvchi xarakatlar, oxirgi nuqtalarda to'xtash joylari, belgilangan aloqa tezligi ko'rsatiladigan bayonnoma tuziladi.

Tergov olib boriladigan yo'nalishdagi transport harakati masofasini va vaqtini o'lchash protsedurasini barcha komissiya a'zolari imzolaydilar.

§ 4. Yo'lovchi tashish yo'nalishlarini yopish

21. Yo`nalishni vaqtincha to'xtatib turish to'g'risidagi qarorni yo'l, ob-havo va boshqa shart-sharoitlar transport xavfsizligini ta'minlashga imkon bermaydigan hollarda yo`nalishlarni ochish va yopish vakolatiga ega organlar qabul qiladilar.

22. Yo`nalishni yopish yo'l harakati xavfsizligi talablariga mos kelmasa yoki undan keyingi foydalanishning maqsadga muvofiq emasligida amalga oshiriladi.

23. O'zbekiston Temir yo'llari va uning tarkibiy bo'linmalari, temir yo'llarni boshqaruvchi vazirliklar va idoralar avtotransportni amalga oshiruvchi boshqa vazirliklar va idoralarga, shuningdek, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha davlat xizmatiga rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risida xabar berishlari kerak. temir yo'l vokzallari yoki avtotransportida transport vositalarining parchalanishi qiyin bo'lgan yoki qiyin bo'lgan yo'llarni ta'mirlash.

24. Temir yo'l kesishmalari orqali transport vositalarini ta'mirlash yoki transport vositalarini ta'mirlash muddati davomida transport vositalarini ta'mirlash tartibi

transport vositalarining buzilganligi yoki qiyinlashtirilsa, ta'mirlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan, davlat harakat xavfsizligi xizmati bilan muvofiqlashtiriladi va o'tish joyi va yo'lning o'tish qismini ta'mirlashda tegishli yo'l tashkilotlari. Avtobuslarning temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanishi yo'l qoidalarining talablariga qat'iy rioya qilish bilan o'ta ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak.

25. Xar o'tish joylarida to'xtash joylari temir yo'lning oxiridan 100 metrgacha yaqin masofada joylashgan bo'lishi kerak va ularning texnik echimi avtobus bekatida asosiy yo'llarda to'siqsiz harakatlanishni ta'minlashi kerak.

26. Tashuvchilar, avtobus bekatlari yangi va ochilgan yo`nalishlarni ochish, mavjud avtobus yo`nalishlarini yopish, ularning o'zgarishi, shuningdek, avtobuslarning vaqtincha to'xtatilishi haqida jamoatchilik va manfaatdor tashkilotlarga xabar beradi.

§ 5. Yakuniy qoidalar

27. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, O'zbekiston temir yo'llari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi bilan kelishilgan.

Yo'lovchilarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish va avtobuslar ishini ratsional tashkil qilish maqsadida yo'llarda avtoshoxbekat va avtoboshbekatlar, kassa punktlari kiradi. Ularning har biri o'z vazifasiga asosan jixozlanadi. Shahar va shahar atrofi avtobus yo`nalishlarining boshlang'ich, oralik va oxirgi bekatlariga standart shakildagi, A harifi tushirilgan ko`rsatkich ilib qo`yiladi. Uning o`lchami 350*595 mm, tunikadan yasaladi. Unda quydagi ma'lumotlar aks ettiriladi: bekat nomi, shu bekatda to`xtaydigan yo`nalishlar raqami, sutkaning soatlari bo`yicha oralik vaqt va yo`nalishdagi oxirgi punkt nomi.

Shahar atrofi yo`nalishlardagi oralik vaqt 20 minutdan ko`p bo`lsa, avtobuslarning jo`nash vaqtlari yozib qo`yiladi. Ko`rsatkichlar erdan 1900 mm balandlikka, ko`rinadigan joyga ilib qo`iladi. Shaharlararo (xalqaro) va tuman

ichidagi yo`nalishlarda oraliq to`xtab o`tish manzillarida ilib qo`yiladigan ko`rsatkichlarda bekat nomi va avtobuslarning jo`nash vaqtlari yozib qo`yiladi.

Oralik bekatlarda yo`lovchilarga qulaylik hosil qilish uchun 5...20 kishi sig`adigan pavilon quriladi. Uning arxitekturasi turlicha bo`lishi mumkin: ochiq yoki yarim yopiq ayvon shakilda, avtobus kutayotganlarni yog`inlardan, quyosh tig`idan asraydi.

Shaharlararo (xalqaro) va shahar atrofi yo`nalishlarda, yo`nalish trassasida joylashgan yirik aholi punktlarida kassa punktlari quriladi. Ular yo`lovchilarga bilet sotadi, avtobus qatnovi haqida kerakli ma`lumotlar beradi. Bunday punkt kichkina uycha bo`lib, kassir, kassa apparati, axborot jihozi va telefon sig`sa kifoya, yo`nalish trassasidagi eng yaqindagi avtoshoxbekat va avtoboshbekatlarga bo`ysunadi.

Avtobus yo`nalishlarida qurilgan yo`l inshootlari- avtoboshbekatlar, avtobuslarni qabul qiladi, jo`natadi, yo`lovchilarni chiqaradi, tushiradi va boshqa xizmat ko`rsatadi. Ular yo`nalishlarning boshlang`ich va oxirgi bekatlarida quriladi, avtomobil yo`llari yoqasidagi aholi punktlarida ham quriladi. Avtoboshbekat-bino, avtobuslarni qabul qilish va turish joyi, yo`lovchilarni chiqarib –tushirib, avtobuslarni jo`natish joyi kompleksidan iborat. Avtoboshbekat binosida yo`lovchilar, avtobuslar ekipaji bufetdan, sanuzellardan, telefon xizmatidan foydalanadilar. Qishda isinib, yozda quyoshdan saqlanadilar.

Avtoshoxbekat- bu shaharlararo aloqalarda yo`lovchilar tashishni tashkil etuvchi korxonalar bo`lishi bilan birga, yo`lovchilarga yo`nalishlarning so`nggi bog`lanish punktlarida madaniy-maishiy xizmat etish maskani hamdir. Avtoshoxbekatlar amalda yirik shaharda alohida qurilgan inshoot majmuidan iborat bo`lib, unga quydagilar kiradi: yo`lovchi va xizmatchi xodimlarga mo`ljallangan binolar; yo`lovchilarning avtobusga chiqish va undan tushish joylari (perronlar), qatnovni kutib turuvchi avtobuslar uchun maydoncha; avtobusni tozalash, yuvish va texnik xizmat ko`rsatish joylari. Avtoshoxbekatning bosh rejasi tarkiga avtoshoxbekat oldi maydonchasi va unga shahar avtotransportining kirish yo`llari hamda taksi avtomobillarining to`xtash joylari kiradi. Avtoshoxbekat

binosida, odatda yo'lovchilar zali va unda chipta sotish kassalari, boshqa turdagi transport agentliklari, yosh bolali yo'lovchilar uchun xona, qo'l yuklarini qabul qilish, jo'natish va saqlash kamerasi, tamaddixonona, tibbiy xizmat punkti, xizmat xonalari (masalan, haydovchilar dam olish xonasi, dispetcherlik xonasi, idoralar va aloqa uzeli va boshqalar) joylashtiriladi. Avtobuslar xarakatini boshqarish uchun avtoshoxbekatlar avtomatik signal beruvchi jixozlar, radioaloqa va televizion qurilmalarga ega bo'lishi lozim. Yo'lovchilarning kelganligi va jo'natilishi xaqida e'lon qilinib turiladi [5-9].

Bilet kassasi aloxida yoki yo'lovchilarni kutish zaliga jixozlanadi. Avtobuslar jo'nab ketishidan oldin yo'lovchilarga navbatsiz bilet sotiladi. Qaytgan biletlarni bitta kassada qabul qilinadi. Kassani ishlash rejimi avtobusni xarakatlanish jadvaliga mos holda tashkil etiladi. Imkon qadar shaharoldi va shaharlararo yo'nalishlar kassasi aloxida tashkil etiladi.

Avtoshoxbekatni xizmat ko'rsatish binosida xarakatlanishni boshqaruvchi dispetcherlik xizmati tashkil etiladi. Haydovchilarni dam olishi uchun mexmonxona qilinadi. Haydovchilar tibbiy ko'rikdan o'tishi uchun jixozlangan xona qilinadi.

Yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash transport xizmatlari ko'rsatishning eng muhim masalasi bo'lib, u harakatlanadigan tarkibdan foydalanish qoidalariga rioya qilishni, transport vositalarining harakatini ta'minlovchi turli xizmatlar professional tarzda va uyushqoqlik bilan ishlashini, yo'lovchilar ham xulq-atvor qoidalariga rioya qilishini, ekologik toza transport turlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Yo'lovchilar oqimining tashish aniq marshrutlarni ishlab chiqish, chiptalarni buyurtma qilish, transportda joylashtirish, yo'lovchilar tashish dasturlarni amalga oshirish bilan bogliq ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani uchun uyishmalarning avtoshox va boshbekatlar bilan yaqin aloqalar o'rnatishiga to'g'ri keladi.

III.TEXNOLOGIK QISM

III.1 AVTOSHOXBEKATDAN XALQARO YO`NALISHLARNI RI`YSTRINI TUZISH

3.1.1 Andijon-Osh yo`nalishi davlatlararo shoh bekatiga biriktirilgan yo`nalishlar

№	Yon turi tartb raqami	Yo`nalishni nomlanishi	Yo`nalish masofasi	Qatnovdagi grafilar soni	Avtobus qatnovlari soni: Bitta/xam.qat	Qatnov boshlanishi va tugashi	Paritetdagi ATK lar nomi	Qatnov dagi xarakat vositasi
1	DY-800	Andijon-Osh	46,0	7*7	5/35	5-15	Osh*27	ISUZU
2	VI-439	Andijon - Buloqboshi	24,9	4*4	4/32	5-50	Buloqboshi-ATK	ISUZU
3	VI-451	Andijon – Xo`jaobod	23,8	2*2 2*2	4/16 4/16	5-50	27*95	ISUZU Gazel
4	VI-513	Andijon-Do`slik	44,2	7*7	4/28	5-15	27*95	ISUZU
№	Yon turi tartb raqami	Yo`nalishni nomlanishi va biriktirilgan perron	Jo`nash vaqti bosh va oxiri	Bir aylanish vaqti	Interval	Grafik soni*Jo`nashlar soni	Chiptalar yoki,yo`lovchilar kirasi	Umumiy probeg
1	D-800	Andijon-Osh	5-15-18-30	130	10	7*35	4000	230
2	VI-439	Andijon - Buloqboshi	5-30 18-30	82	10	8*20	2000	254
3	VI-451	Andijon – Xo`jaobod	5-30 18-30	80	10	8*22	3000	242
4	VI-513	Andijon-Do`slik	5-30 18-30	118	10	11*24	3500	265

Avtshobekatdan jo`natilayotgan yo`lovchi oqimini unimdorligini hisoblab chiqamiz. Andijon-Osh $35 * 45 * 4000 = 6300000$ so`m
 Andijon – Buloqboshi $20 * 37 * 2000 = 1480000$ so`m, Andijon – Xo`jaobod $22 * 37 * 3000 = 2442000$ so`m, Andijon-Do`slik $24 * 37 * 3500 = 3108000$ so`m Jami kunlik Yo`lovchi oqim 10888000 so`m .Soatdagi jo`natish $= 907333$ so`m Bundan hizmat 136099 s.

DY – 800 – sonli “ANDIJON –Osh” avtobus yo’nalishi

(qatnov yo’lining tartib soni va nomi)

YO’NALISH QATNOV YO’LI MASOFASINI VA HARAKAT VAQTINI ANIQ O’LCHASH QAYTNOMASI

O’zbekiston avtomobil transporti vazirligi Andijon viloyat hududiy bo’limi sektor mudiri A.Asrinov raisligida mutahassisligi S.Mirsalimov, Andijon shahar MCHJ ning raxbari M. Muxamedjonov, jamiyatning xarakat xafsizligi bo’yicha mutaxasisi N Sayfudinov va haydovchi E. Chartakovlar ishtirokida masofa o’lchigichi soz bo’lgan ISUZU rusumli davlat raqami 17AQ 211 bo’lgan avtomabilda 2019 yilning 17 aprel kuni o’lchov o’tkazildi.

T/P	Oraliq to’xtash bekatlarning nomlari	Masofa o’lchagich ko’rsatkichlari		Masofa.km			Sarflanadigon vaqt (minut)			O’rtacha texnik tezlik		Qatnov yo’li haqida ma’lumotlar (yo’l qoplamasi, kengligi, ko’prik, ko’tarilish, pasayish, ko’prik yo’-l, temir yo’lni kesib o’tadi-gon joy)
		Jonash vaqtida	Kelgan vaqtida	Boshlanish	Bekatlari	Shundan harakat tezligi chegaralangan oraliqda	Bekatlari oraliq’idagi harakat	Shundan harakat chegaralangan oraliqda	Oraliq bekatda to’xtash uchun	Bekatlari oraliq’idagi harakat	Shundan harakat tezligi chegaralangan oraliqda	
1	ANDIJON-Xo’jaobod	3050,0	294,0	23,8	23,8	23,8	31	31	1	46,5	46,5	Asf. 14 -16m svrtofor
2	Xo’jaobod –Do’sstlik	294,0	312,4	42,2	18,4	18,4	24	24	1	46,0	46,0	Asf. 14 -16m svrtofor
3	Do’sstlik –Osh	306,0	316,2	46	3,8	3,8	5	5	1	46,5	46,5	Asf. 12 -14m svrtofor
							60		3			
		O’rta texnik tezlik = 46 km/soat					Qatnovdagi tezlik = 46,0 km/soat					
<i>Qatnov yo’li harakat havsizligi Talablariga javob beradi</i>				<i>O’lchov qatnashchilari Imzolari</i>				<i>A. Asrinov S.Mirsalimov M. Muxamedjanov N. Saifudinov E. Chartakov.</i>				

YO`LKIRA HAQI JADVALI
DY – 800 CONLI “ANDIJON –O`SH”
 (Yo`nalishli taksilar uchun)

№ T/r	Boshlang'ich, oraliq va oxirgi bekatlar nomi	Masofa (km.) da					
		Boshlang'ich bekatdan	Bekatlari oralig'ida				
1.	ANDIJON-XO`JAOBOD	23,8	23,8	2000			
2.	XO`JAOBOD –DO`STLIK	42,2	18,4	3700	1500		
3.	DO`STLIK –O`SH	46	3,8	4000	3700	1500	
Izox Jadval qatoridagi yuqoridagi raqam bir yo`lovchi to`laydigan yo`l kira xaqini belgilaydi							
Yo`l kira xaqi jadvalini tuzuvchi				N.Komilova .			

3.3.3. Rasm Yo`nalilarga yo`l kira olish xuquqini beruvchi narxnoma.

5.3.4. Rasm **DY – 800** – sonli **“ANDIJON – O‘SH”** Avtobus yo‘nalishining xarakat jadvali

Qatnov yo‘l masofasi **46,0 km**

Qatnovchi avtomobillar soni – **7 + 7**

Yo‘lkira xaqi **4000** so'm

O‘SH tomonga								To‘xtash joylarining nomlari	ANDIJON tomonga							
Qatnov vaqtlari va astranomik vaqt (soat-minut)									Qatnov vaqtlari va astranomik vaqt (soat-minut)							
1 Grafik		2 Grafik		3 Grafik		4 Grafik			1 Grafik		2 Grafik		3 Grafik		4 Grafik	
Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	Kelish vaqti	Jo‘nash vaqti	
6=00	6=10	6=04	6=14	6=08	6=18	6=12	6=22	ANDIJON	6=00	6=10	6=04	6=14	6=08	6=18	6=12	6=22
7=10	7=20	7=14	7=24	7=18	7=28	7=22	7=32	O‘SH	7=10	7=20	7=14	7=24	7=18	7=28	7=22	7=32
8=20	8=30	8=24	8=34	8=28	8=38	8=32	8=42	ANDIJON	8=20	8=30	8=24	8=34	8=28	8=38	8=32	8=42
9=30	Ob 45 10=25	9=34	Ob 45 m 10=29	9=38	Ob 45m 10=33	9=42	Ob 45m 10=37	O‘SH	9=30	Ob 45 m 10=25	9=34	Ob 45 10=29	9=38	Ob 45m 10=33	9=42	Ob 45m 10=37
11=25	11=35	11=29	11=39	11=29	11=43	11=33	11=47	ANDIJON	11=25	11=35	11=29	11=39	11=29	11=43	11=33	11=47
12=35	12=45	12=39	12=49	12=43	12=53	12=47	12=57	O‘SH	12=35	12=45	12=39	12=49	12=43	12=53	12=47	12=57
13=45	13=55	13=49	13=59	13=53	14=03	13=57	14=07	ANDIJON	13=45	13=55	13=49	13=59	13=53	14=03	13=57	14=07
14=55	Ob 45 m 15=50	14=59	Ob 45 m 15=54	15=03	Ob 45m 15=58	15=07	Ob 45m 16=02	O‘SH	14=55	Ob 45 m 15=50	14=59	Ob 45 m 15=54	15=03	Ob 45m 15=58	15=07	Ob 45m 16=02
16=50	17=00	16=54	17=04	16=58	17=08	17=02	17=12	ANDIJON	16=50	17=00	16=54	17=04	16=58	17=08	17=02	17=12
18=00	Sa18=1 0	18=04	Sa18=14	18=08	Sa18=1 8	18=12	Sa18=22	O‘SH	18=00	Sa18=10	18=04	Sa18=1 4	18=08	Sa18=1 8	18=12	Sa18=22

III.2 XALQARO YNALISHDAGI AVTOSHOHBEKATNI TEXNOLOGIK HISOBLASH

3.2.1. Texnologik hisob uchun dastlabki ma'lumotlar:

Avtoshohbekatni loyihalashda sanoat korxonalarini loyihalash № CH-202-80 sonli qoidalaridan foydalaniladi. Loyihalash uchun quydagi dastlabki ma'lumotlardan foydalaniladi; [10-12]

1) . “Andijon shahar shohbekatiga birlashtirilgan yo'nalishlar bo'yicha jo'nashlarni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

2) ISUZI, Gazel, Nexsiya turdagi xarakatdagi tarkibning gabarit o'lchamlari.

3) ISUZI, Gazel, Nexsiya turdagi avtomobillar bilan jo'natishlar soni.

4) ISUZI, Gazel, Nexsiya turdagi avtomobillar bilan jo'nab ketgan yo'lovchilar soni,

5) Avtoboshbekatning kunlik ish rejimi:

a) Yildagi ishchi kunlar $D_p = 365$ kun;

b) Ishchi smenalar soni 1,5 smen;

b) Sutkalik ish rejimi 12 soat.

6) MTXlar, rahbarlar, ishchilar va kichik boshqaruv xodimlari haftada 6 kun ishlaydi, yildagi ishchi kunlar $D_k = 365$ kun.

3.2.2. Bosh bekatdan yo'lovchilarni jo'naish dasturini hisoblaymiz.

Yo'lovchilarni jo'naish dasturi odatda bir kunga hisoblanadi, yani avtobuslar, yo'nalishdagi taksilar, engil taksilarni ertalabdan to kechgacha yo'lovchilar xarakati tugaguncha bo'lgan vaqitga aytiladi.

Loyihalashda quydagi belgilash mavjud :

Avtoshohbekatda maksimal toplangan ISUZI, Gazel, Nexsiya turdagi xarakatdagi tarkiblar soni 150 ta .

